

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.I.Tuychiyev	
Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarda intizomlik munosabatini shakllantirish	119
R.K.Boyqo'zieva	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari	122
U.L.Kuchkarov	
5-7 Yoshli gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.....	126
N.A.Niyazova	
Smart-jamiyatga o'tish kontekstida ta'limni axborotlashtirishning zamonaviy ilg'or pedagogik xamkorligi	130
S.O'.Boybo'riyeva	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari.....	137
N.S.Qanoatova	
Talabalarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta'lim olishining nazariy-pedagogik asoslari	141
O.M.Karimov	
O'quvchilarda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati	146
S.A.Qo'chqorov	
Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik elementlari vositasida talabalarni harbiy xizmatga tayyorlashda vatanga fidoiylilik tushunchalarini singdirishning dolzarbligi	151
I.A.Imomov	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili	156
Sh.Mo'minov, T.Mo'minov	
Notiqlik va vatanparvarlik uyg'unligining lingvokulturopedagogik tadqiqi	161
B.X.Baydjanov, N.X.Quziyeva	
Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ijodiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlari	164
D.O'.Yusupova	
Chet tili o'qitishning modellari haqida.....	168
A.I.Soyibnazarov	
O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari va ularni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari.....	172
A.M.Toshpo'latov	
Yoshlarni xarbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi	177
Sh.X.Azamov	
Zamonaviy ta'lim jarayonida loyihalash faoliyatini tashkil etish	183
A.Tadjibaeva	
Ta'lim jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lim olishni ta'minlash omili sifatida	187
F.V.Xalilov	
Talabalar mustaqil ta'limining bugungi holati va uni samarali tashkil etishda didaktik vositalardan foydalanish.....	194
M.M.Kataeva	
Ta'lim jarayonida mobil ta'limning tahlili va tavsiyalar	198
E.K.Muxtarov	
Ikki o'lchamli potensial o'radagi zarrachaning kvant holatini modellashtirish	203
M.M.Tojiboyev, D.S.Yunusova, M.R.Xursantova	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi	208
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	212
B.X.Baydjanov, Sh.I.Xolmatova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlarni ifodali o'qishga o'rgatish texnologiyalari.....	220
A.U.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	224

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI BADIY ASARLARNI IFODALI O'QISHGA O'RGATISH TEXNOLOGIYALARI**TECHNOLOGIES OF TEACHING ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS TO EXPRESSIVE READING OF WORKS OF ART****ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ВЫРАЗИТЕЛЬНОМУ ЧТЕНИЮ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ****Baydjanov Bekzod Xaitboyevich¹, Xolmatova Shahnoza Ilyosxon qizi****¹Baydjanov Bekzod Xaitboyevich**

– Farg'ona davlat universtiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

²Xolmatova Shahnoza Ilyosxon qizi

– Farg'ona davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi (Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi magistranti.

Annotatsiya

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobga, kitobxonlikka mehr uyg'otish, bolalar qalbini kitob bilan oshno qilish dolzarb masalalardan biri sifatida qaraladi. Badiiy asarlarni o'qib o'rganish orqali bolalar yaxshi-yomonni, oq-u qorani, past-balandni ajratishni o'rganadi. Ezgulikka muhabbati oshib, yovuzlikdan nafratlanadi. Shu o'rinda, badiiy asarlarning ham o'ziga xos tur va yo'nalishlari mavjud bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga mos va xos asarlarni tanlash va ularni to'g'ri, aniq, ravon o'qishga o'rgatish ham pedagogdan yuksak pedagogik mahoratni talab etadi. Kitob mutolaasi, birinchi navbatda, o'quvchilar tasavvurini shakllantiradi. Bizning har bir harakatimiz, o'ylagan o'yimiz ma'lum bir tasavvurga asoslanadi. Biror narsa, voqea, predmet voqealanishi uchun ham avvalo, bizning tasavvurimiz g'alviridan o'tishi kerak bo'ladi. Ya'ni, bizning tasavvurimiz aralashmagan voqelik mavhumlikdir. Hayotning eng muhim jihati shundaki, o'quvchi nimani tasavvur qilsa, o'shangagina erishadi. Inson tasavvuri realikni yaratadi. Tarixda yuksak kashfiyotlar qilgan daholar o'z tasavvur doiralariidan ortig'iga ega buyuk insonlar bo'lishgan. Kitob mutolaasi jarayonida o'quvchining tasavvuri ishlaydi. U uzoq o'tmishni, kelajakni tasavvur qiladi. Zamondoshlari hayotini tasavvurida gavdalandiradi. Bu jarayon teleekrandagi jonsiz surat shaklida emas, o'quvchining ongida, tasavvur olamida sodir bo'ladi. Va o'z-o'zidan o'quvchining ongida ham o'zgartishlar yasashga qodir bo'ladi. Shu sababli ushbu maqolada aynan bolalarni badiiy asarlarni sevib o'qishga va ongli ravishda ifodali o'qishga o'rgatish xususida so'z boradi.

Аннотация

Привитие младшим школьникам любви к книгам и чтению, приобщение детских сердец к книгам рассматривается как один из актуальных вопросов. Читая художественные произведения, дети узнают хорошее и плохое, черное и белое, учатся различать высокое и Низкий. У него возрастает любовь к добру и он ненавидит зло. В этом пункте существуют также конкретные виды и направления художественных произведений, исходя из возрастных особенностей учащихся начальных классов, подходящие для них и подбирающие конкретные произведения и обучающие их правильному чтению, точно, бегло и требует от педагога высокого педагогического мастерства. Чтение книги, прежде всего, формирует воображение учащихся. Каждое наше действие и мысль основывается на определенной идее. Чтобы что-то, событие, предмет стали событием, оно должно сначала пройти через наше воображение. То есть реальность без нашего воображения — это абстракция. Самый важный аспект жизни состоит в том, что то, что ученик себе представляет, он может достичь. Человеческое воображение создает реальность. Гении, совершившие великие открытия в истории, были великими людьми, обладавшими не только своим воображением. Воображение читателя работает в процессе чтения книги. Он воображает далекое прошлое и будущее. Он воплощает жизнь своих современников в своем воображении. Этот процесс происходит не в виде безжизненной картинке на экране телевизора, а в сознании читателя, в мире воображения. И сама по себе она способна произвести изменения в сознании ученика, поэтому данная статья посвящена обучению детей читать художественные произведения с любовью и читать осознанно и выразительно.

Abstract

Instilling a love for books and reading in primary school students, familiarizing children's hearts with books is considered as one of the urgent issues. By reading works of art, children learn good and bad, black and white, learns to distinguish between high and low. His love for goodness increases and he hates evil. At this point, there are also specific types and directions of artistic works, based on the age characteristics of primary school students, suitable for them and choosing specific works and teaching them to read correctly, accurately, fluently also requires high pedagogical skills from the pedagogue. Reading a book, first of all, shapes the students' imagination. Each of our actions and thoughts is based on a certain idea. In order for something, an event, an object to become an event, it must first pass through our imagination. That is, the reality without our imagination is an abstraction. The most important aspect of life is that what a student imagines, he can achieve. Human imagination creates reality. Geniuses who made great discoveries in history were great people who had more than their imagination. The reader's imagination works in the process of reading a book. He imagines

PEDAGOGIKA

the distant past and the future. He embodies the life of his contemporaries in his imagination. This process takes place not in the form of a lifeless picture on the TV screen, but in the mind of the reader, in the world of imagination. And by itself, it is able to make changes in the mind of the student. Therefore, this article is about teaching children to read works of art with love and to read consciously and expressively.

Kalit so'zlar: mutolaa madaniyati, kitob, kitobxonlik, ifodali va ongli o'qish, masal, she'r, maqola

Key words: reading culture, book, reading, expressive and conscious reading, parable, poem, article

Ключевые слова: культура чтения, книга, чтение, выразительное и сознательное чтение, притча, стихотворение, статья

KIRISH

Mutolaa madaniyati kishining manbaani to'laqonli tushunishi, undan estetik zavq olishi, muallif fikri va g'oyasini anglashi hamda uni baholay olishi kabi xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Kitobni tanlash, uni tez o'qish, avaylab saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish, o'qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya eta olish ham mutolaa madaniyatiga kiradi. Demak, mutolaa madaniyati insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uyg'unlashish, ma'naviy foyda olishga yo'naltiradi. Bugungi shiddatli va murakkab globallashuv davrida yuzaga kelayotgan mafkuraviy xatarlar va tahdidlarga qarshi kurashish kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish, ayniqsa, bolalar va yoshlarni kitobga oshno qilish, kutubxonalarda mutolaani rag'batlantirish kabi qator dolzarb masalalar yechimi bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvarda imzolangan — kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risidagi farmoyishi ana shu ezgu ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarishga qaratilganligi bilan g'oyatda ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Respublikamizda mutolaa madaniyatini, mutolaa texnologiyasi, mutolaa darajasi va intensivligi asosida shakllantirishga doir bir qator ilmiy ishlar olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ularning fikricha, mutolaa madaniyatining muhim tarkibiy jihatlari undagi ixtiyoriylik, ta'lim olishda ongliklik, faoliyat turini erkin tanlash, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyoji tamoyillari bilan bog'liq bo'lib, bu zamonaviy yondashuv o'quvchi shaxsini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Metodist olim M.Mirqosimova ko'rsatib o'tganiday: "Adabiy tahlil she'r yoki nasriy asarni ifodali o'qishdan boshlanadi". O'qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tizimi anglanadi, o'zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko'z o'ngida yaratilgan poetik manzarani yaratishda shoir yoki yozuvchi qo'llagan tasviriy vositalarga sirdan ahamiyat berilmaydi, asosiy e'tibor o'qish jarayonida mazmunga, obrazning ichki ma'nolariga jalb etiladi.

Rus olimi N.I.Kudryashev badiiy asar o'qishning uch asosiy metodini tavsiya etadi: tahlil etish, talqin qilib sintezlash, birlashtirish. Badiiy asar o'qish haqidagi o'z talqinlarini davom ettirib, ijodiy o'qishga alohida urg'u beradi. Bundan tashqari ifodali va sharhli o'qish, o'qituvchi va o'quvchining so'zlashuvi, o'quvchilar bilan suhbat, badiiy asar va hayotiy kuzatishlar asosida topshiriqlarni muhokama qilish, savol va rejalar tuzish mutolaa madaniyatini tashxislashda asosiy omildir. V.V.Ivanixin o'quvchilarga o'qituvchi beradigan izoh va sharhlar haqida gapirib, o'quvchidan uning shaxsiy, ko'pincha tushuntirib bo'lmaydigan holatlaridan, ba'zida esa g'alati savollaridan kelib chiqish lozimligini uqtiradi.

MUHOKAMA

Masal, axloqiy mazmuni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiradigan badiiy asardir. U ko'proq she'riy tarzda yoziladi. Masalda inson xarakteriga xos xususiyatlar kinoyaviy obrazlar — hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan oxirida qissadan xissa, ya'ni ibratli xulosa chiqariladi. Bu o'quvchilarni axloqiy tomondan tarbiyalashga katta imkon beradi. Masalda fikrning qisqa, lo'nda, chiroyli va ifodali tasvirlanishi, tilining o'tkirliigi va xalqchilligi o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishda muhim material hisoblanadi. Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo'lgan kichik pyesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa va mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo'la oladi.

Boshlang'ich sinflarda masalni o'rganishda bolalarni masalni ifodali o'qishga va uning mazmunini qisqa, ba'zan bir necha so'z bilan aytib berishga (masalni to'liq qayta hikoya qildirish tavsiya etilmaydi), ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aytib, o'zaro qiyoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Masalning allegorik mazmuniga to'xtalmasdan, bosh personaj obrazini tahlil qilishga kirishiladi. 1- sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o'xshash kulgili hikoya kabi qabul qilsalar, 2- sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o'zaro

munosabatlari ba'zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko'proq she'riy tarzda bo'lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar. Masal tili ustida ishlaganda, o'quvchilar nutqini boyitish uchun unda ishlatilgan obrazli iboralar, badiiy vositalar o'quvchilarga mustaqil toptiriladi: o'quvchilar o'qituvchi bergan gap yoki iborani masaldagi ibora bilan almashtiradilar. Masalan, Shukur Sa'dullaning "Laqma it" masalining tili ustida ishlash jarayonida o'qituvchi qish kelib sovuq boshlandi. Bo'ron turdi gaplarini beradi, o'quvchilar gaplarini topib aytadilar. Masal tahlil qilinayotganda voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o'quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so'z bilan tasvirlash, ba'zilariga o'qituvchi yordamida tavsif tuzish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo'lib o'qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Personajga xarakteristika berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o'ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Masalni ifodali o'qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, avtor tilini yaxshi tushunish, xar bir personajning individual xarakterini hisobga olish zarur. Masalan, "Laqma It" masalini o'qiganda, laqma itning yalinib-yolvorishi, mushukning to'g'riso'zligi muomalasi orqali ifodalandi. Dialogli masallarni rollarga bo'lib o'qish, inssenirovka qilib, aytdirish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy formasi lirik she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham, she'riy hikoyani ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhimdir, shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahrg'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari, she'r ritmini buzmasliklariga erishish lozim. She'r mazmuni ham, boshqa janrdagi badiiy asarlar kabi, savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilarga she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi (o'quvchilar darsda ifodali o'qimagan she'rni uyda ifodali yod aytib berishga tayyorlanishni tavsiya etilmaydi).

Bolalar she'rni yoqtiradilar. She'riy nutq yengil yodlab olinadi, estetik his-tuyg'u uyg'otadi, kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalar bop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar, keyin yoddan ifodali o'qiydilar.

Ilmiy-ommabop maqolalarni o'qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o'rgatishdan iborat. Ilmiy prozada real muhit faktlarini kuzatish natijasining mantiqiy umumlashmalari va xulosalari xisoblangan aniq tushunchalar aks ettiriladi. Ilmiy-ommabop maqolalar bolalarni gazeta va jurnallarni o'qishga tayyorlaydi, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o'zlashtirishga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o'stiradi.

NATIJARLAR

O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, o'tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiriladi. Ularda bilimga havas uyg'otadi. 2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfda 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi o'tkaziladi. Ona – vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarni o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qishga tavsiya etadi. 3 va 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti, yorqin tasvirlangan, ularning ma'naviy-ahloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. 3-4 sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasida kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi. Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezalishi mumkin. Bunda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ish olib boradi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishni, nutqni o'stirish, adabiy – estetik tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyoti avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchiga jonajon o'lka tabiatini,

PEDAGOGIKA

kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealarni, bolalarning o'yinlari, ertaliklari, orzu istaklarini hikoya qilib beradi. Bu borada ertaklar katta ahamiyatga ega. Xalqimizning tarixi, uning urf odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari barcha orzu istaklari ming yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu havaslarini yosh avlodda o'g'il-qizlarida ko'rishni istaydilar. Shu sababdan ham o'quvchilarga ertaklarni o'qishga tavsiya qilinadi. Ertak o'qigan bola qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladi. O'quvchi yer yuzidagi barcha insonlarning men bir bo'lagiman, men o'z xalqimga qilayotgan ishlarim bilan ularga munosib bo'lib ulg'ayishim kerak, desagina o'z xalqini munosib farzandi bo'la oladi. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalaydigan baynalminal badiiy quroldir. "Uch og'ayni botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Egri va To'g'ri" kabi bir qator ertaklar o'quvchilarning sevimli ertaklaridir. O'quvchilar bu ertaklardan kishi o'z mehnatiga ishonib yashashi kerakligini, bironing boyligiga hasad bilan qaramaslik kerak degan hayotiy xulosalarni o'qituvchi yordamida tushunib yetadilar.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, kitob inson uchun eng yaxshi hamroh, eng dilkash suhbatdosh. Badiiy asarlarni o'qish orqali inson o'zidagi kamchilik va xatolarini anglaydi, to'g'ri fikr olaydi, estetik zavq oladi, muammolariga yechim topoladi. Bir so'z bilan aytganda, ma'naviy olamini yuksaltirib, yuksaklarga undaydi. Kitobga bo'lgan oshnolikni, poydevorini yoshlikdan, aynan boshlang'ich sinfdan qo'yimoq darkor. Shu o'rinda, pedagog zimmasiga ham bir qator vazifalar yuklanishi va ushbu vazifalarni pedagog ham sidqidildan bajarmog'i lozim. Bolalar misoli bo'm-bo'sh qop. Qopni nima bilan, qanday tarzda to'ldirish pedagogning salohiyati va kompetentligiga bog'liq. Shunday ekan badiiy asarlarga oshnolikni, ularni to'g'ri va ongli o'qishga o'rgatishni, bu orqali yuksak saviyali kadrlar yetishtirishga bir tamal toshini qo'yayotganini his qilgan holda jonbozlik ko'rsatmoqlik har bir pedagog uchun yuksak ma'suliat va javobgarlik sifatida qaralmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek xalq maqollari. Toshkent, 1978. –288b. (Uzbek folk proverbs. Tashkent, 1978. - 288 p)
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor –T., O'qituvchi, 1990 (Jumaboyev M. "Children's literature and folklore". -T., Teacher, 1990)
3. S. Inomxo'jayev, A. Zunnimov. Ifodali O'qish asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1978. (S. Inomkhojaye, A. Zunnimov. Fundamentals of Expressive Reading. - Tashkent: Teacher, 1978).
4. Matchonov S., Shojalilov A., Gulomova X., Sariyev Sh. Dolimov Z. O'qish kitobi 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Yangiyo'l poligraf servis" 2013. 83 (
- 5 Matchonov S., Shojalilov A., Gulomova Kh., Sariyev Sh. Dolimov Z. "Reading book": textbook for 4th grade. -Tashkent: "Yangiyo'l polygraph service" 2013. 83)
6. T. G'afforova va boshqa. O'qish kitobi (1-sinf uchun darslik). -T: Sharq, 2009. (T. Gafarova and others. Reading book (textbook for 1st grade). T.: Sharq, 2009).
7. B. Ma'qulova, Sa'diyeva. Sinfdan tashqari O'qish mashg'ulotlari (I -sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). - T.: "O'qituvchii", 1997. (B. Ma'qulova, Sa'diyeva. Out-of-class reading exercises (Methodical guide for I-grade teachers). - T.: Teacher, 1997).
8. B. Ma'qulova, T. \., Kitobim - oftobim (1 -sinf sinfdan tashqari O'qish kitobi). - T.: "O'qituvchi", 1999. (B. Ma'kulova, T. \., My book is my sun (Reading book out of class). - T.: "Teacher", 1999).